

Shu munosabat bilan profilaktika tadbirlarini kuchaytirish, ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, psixoaktiv moddalarning zararli oqibatlari haqida aholining huquqiy va tibbiy savodxonligini oshirish, xavf guruhiga mansub shaxslar bilan manzilli ishlash hamda narkologik yordam va rehabilitatsiya xizmatlari qamrovini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, giyohvandlik va zaharvandlikka qarshi kurashishning samaradorligi davlat organlari, ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash tizimi va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligiga asoslangan kompleks yondashuvni talab etadi.

Foydalanilgan manbalar / References

1. Muxitdinov F.M. Huquqbuzarliklar profilaktikasi nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. – B. 145–148.
2. ВОЗ: употребление алкоголя и наркотиков приводит к 3,2 миллиона смертей в год, в основном среди мужчин. / <https://www.ungeneva.org/ru/news-media/news/2024/06/94747/voz-upotreblenie-alkogolya-i-narkotikov-privodit-k-32-milliona>.
3. Число людей, употребляющих наркотики, выросло на 20 процентов за 10 лет. / <https://news.un.org/ru/story/2024/06/1453676>.
4. Захидова Г.А., Пикирения У.И., Сюняков Т.С., Прилуцкая М.В. Motives for New Psychoactive Substances Consumption among Young Adults in Uzbekistan: A Qualitative Study Protocol // Consortium Psychiatricum. – 2025. – Vol. 6. – No. 1. – P. 37–46.
5. Goldstein P.J. The Drugs/Violence Nexus: A Tripartite Conceptual Framework // Journal of Drug Issues. – 1985. – Vol. 15. – No. 4. – P. 493–506; United Nations Office on Drugs and Crime. World Drug Report 2025. – Vienna: UNODC, 2025. – P. 1–25.
6. Akramov X., Abduazimova Z. O'zbekistonda yoshlar va xotin-qizlar orasida giyohvandlik va zaharvandlikning tarqalish muammolarining psixologik-sotsiologik hamda axloqiy masalalari // O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari. – 2024. – №1.6. – B. 18–23.

ODAM SAVDOSI – GLOBAL MUAMMO SIFATIDA: SABABLARI VA OQIBATLARI



Achilov Alisher Temirovich

Tashkent International University, "Huquqiy fanlar" kafedrası professori v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Ташкентский международный университет, и.о. профессора кафедры «Правоведение», доктор философии по юридическим наукам (PhD)

Tashkent International University, the Department of Jurisprudence, Doctor of Philosophy (PhD) in Legal Sciences



Po'latxojiakbarov Ramazon Rustam og'li

Tashkent International University, Yurisprudensiya fakulteti 3-kurs talabasi

Ташкентский международный университет, студент 3-го курса юридического факультета

Tashkent International University, 3rd year student of the Faculty of Jurisprudence

Annotatsiya. Ushbu maqolada odam savdosining global muammo sifatidagi mohiyati, uning kelib chiqish sabablari va jamiyatga keltiradigan salbiy oqibatlari tahlil qilingan. Shuningdek, bu transmilliy jinoyatga qarshi kurashishning xalqaro huquqiy mexanizmlari va chora-tadbirlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: odam savdosi, global muammo, jinoyatchilik, migratsiya, huquqiy himoya, ekspluatatsiya, transmilliy xavf.

HUMAN TRAFFICKING AS A GLOBAL PROBLEM: CAUSES AND CONSEQUENCES

Abstract. This article analyzes the essence of human trafficking as a global problem, its root causes, and its negative consequences for society. International legal mechanisms and effective measures to combat this transnational crime are also deeply considered.

Keywords: human trafficking, global problem, crime, migration, legal protection, exploitation, transnational threat.

Odam savdosi zamonaviy dunyoning eng o'tkir va murakkab global muammolaridan biri bo'lib, u inson huquqlari va erkinliklariga qaratilgan og'ir jinoyat hisoblanadi. Bugungi kunda globallashuv jarayonlarining tezlashishi, davlatlararo chegaralarning ochiqligi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi odam savdosi bilan shug'ullanuvchi transmilliy uyushgan jinoiy guruhlarining faoliyat doirasini yanada kengayishiga olib keldi. Bu illat nafaqat alohida shaxslarning hayoti va sog'lig'iga putur yetkazadi, balki davlatlarning

iqtisodiy, ijtimoiy va demografik barqarorligiga ham jiddiy xavf tugʻdiradi. Jahon hamjamiyati bu borada qator konvensiyalar va huquqiy hujjatlarni qabul qilgan boʻlishiga qaramay, odam savdosi qurbonlarining soni butun dunyo boʻylab hamon yuqoriligicha qolmoqda. Shu sababli, ushbu jinoyatning tub sabablarini ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish, uni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni oʻrganish va uning oqibatlarini bartaraf etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri sanaladi [1; 15-b].

Insoniyat sivilizatsiyasi yuksak choʻqqilarga chiqqan XXI asrda “zamonaviy qullik” deb ataluvchi odam savdosi muammosi eng dolzarb global tahdidlardan biri boʻlib qolmoqda. Odam savdosi nafaqat inson huquq va erkinliklarining qoʻpol ravishda poymol etilishi, balki davlatlarning milliy xavfsizligi va xalqaro barqarorlikka raxna soluvchi transmilliy uyushgan jinoyatchilikning bir koʻrinishidir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining maʼlumotlariga koʻra, dunyo boʻylab millionlab insonlar majburiy mehnat, jinsiy ekspluatatsiya va inson aʼzolarining savdosi qurboniga aylanmoqda. Ushbu jinoyatning murakkabligi shundaki, u chegara bilmaydi va qurbonlarni ijtimoiy himoyalangan qatlamlar orasidan izlaydi. Odam savdosi nafaqat shaxsning jismoniy va ruhiy holatiga, balki jamiyatning demografik tuzilishi va iqtisodiy barqarorligiga ham halokatli taʼsir koʻrsatadi [1; 12-b.]. Shu sababli, mazkur muammoning ildizlarini oʻrganish, uning sabab va oqibatlarini ilmiy asosda tahlil qilish hamda samarali kurash mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy huquqshunoslik va sotsiologiya fanlari oldidagi ustuvor vazifa boʻlib hisoblanadi.

Odam savdosiga qarshi kurashish masalasi koʻplab xalqaro tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (XMT) va turli davlatlarning yuridik olimlari tomonidan keng oʻrganilgan. BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasini toʻldiruvchi “Odam savdosi, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish, unga chek qoʻyish va uni jazolash toʻgʻrisida”gi Palermo protokoli (2000-yil) mazkur sohadagi asosiy xalqaro huquqiy hujjat boʻlib xizmat qiladi. Mahalliy olimlarning tadqiqotlarida esa migratsiya oqimlari, aholining huquqiy madaniyati va mehnat bozoridagi muvozanatning buzilishi odam savdosiga zamin yaratuvchi asosiy omillar sifatida eʼtirof etiladi.

Odam savdosi muammosi koʻplab xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, gʻarb tadqiqotchilari S. Kara va K. Bales oʻz ishlarida zamonaviy qullikning iqtisodiy modellarini va qurbonlarni jalb qilish usullarini batafsil yoritib berishgan. Oʻzbekistonlik olimlar ham ushbu jinoyatning kriminologik tavsifi va unga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini (masalan, “Odam savdosiga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi Qonun tahlili doirasida) tadqiq etib kelmoqdalar [2; 45-b.]. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy metod va statistik maʼlumotlarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Metodologik asos sifatida xalqaro tashkilotlarning (BMT, YEXHT, Xalqaro mehnat tashkiloti) hisobotlari va soʻnggi yillardagi global tendensiyalar oʻrganildi. Maqolada asosiy eʼtibor odam savdosining preventiv choralariga va reabilitatsiya masalalariga qaratilgan boʻlib, bu muammoni hal etishda kompleks yondashuv zarurligi asoslab berilgan.

Ushbu maqolada odam savdosi jinoyatining sabablari va oqibatlarini oʻrganish maqsadida tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy oʻrganish, statistik maʼlumotlarni umumlashtirish va deduksiya metodlaridan foydalanildi. Xalqaro hisobotlar va ekspert xulosalarini qiyosiy tahlil qilish orqali muammoning hozirgi holati va unga qarshi kurashishning taʼsirchan usullari tadqiq etildi [2; 48-b.].

Odam savdosining sabablari koʻp qirrali boʻlib, ular asosan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy omillar bilan bevosita bogʻliqdir. Eng asosiy iqtisodiy sabablardan biri bu daromadlar oʻrtasidagi keskin farq va qashshoqlik darajasi hisoblanadi. Rivojlanayotgan yoki iqtisodiy inqirozni boshidan kechirayotgan mamlakatlardagi ishsizlik, oylik maoshlarning pastligi odamlarni yaxshiroq hayot

ilinjida xorijiy davlatlarga chiqishga undaydi. Bu jarayonda huquqiy savodxonlikning pastligi, chet elda ishlash tartib-qoidalarini bilmaslik va jinoiy guruhlarining aldamchi takliflariga ishonuvchanlik fuqarolarning odam savdosi qurboniga aylanishiga olib keladi. BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik boʻyicha boshqarmasi maʼlumotlariga koʻra, odam savdosidan olinadigan noqonuniy daromadlar miqdori yiliga oʻnlab milliard dollarni tashkil etadi, bu esa jinoiy guruhlarining oʻz faoliyatlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishiga xizmat qilmoqda [3; 112-b.].

1-jadval

Odam savdosi qurbonlarining ekspluatatsiya turlari boʻyicha global taqsimlanishi [1; 22-b.]

Ekspluatatsiya turi	Qurbonlarulushi(%)	Asosiy mintaqalar
Jinsiy ekspluatatsiya	50%	Yevropa, Osiyo qitʼasi
Majburiy mehnat	38%	Yaqin Sharq, Afrika
Noqonuniy organlar savdosi	6%	Global miqyosda
Boshqa turlar (tilanchilik va b.)	6%	Turli rivojlanayotgan hududlar

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, axborot texnologiyalarining rivojlanishi jinoyatchilarga oʻz qurbonlarini ijtimoiy tarmoqlar va soxta eʼlonlar orqali "ovlash" imkonini bermoqda. Odam savdosining oqibatlari jabrlanuvchilar uchun juda fojialidir: ular ogʻir psixologik jarohat oladi, jamiyatdan ajralib qoladi va koʻpincha surunkali kasalliklarga chalinadi. Davlat miqyosida esa, bu illat inson kapitalining yoʻqotilishiga, korrupsiyaning kuchayishiga va milliy xavfsizlikka tahdidning ortishiga sabab boʻladi. Quyidagi jadvalda odam savdosiga olib keluvchi asosiy xavf omillari va ularning taʼsir darajasi keltirilgan.

2-jadval

Odam savdosiga olib keluvchi asosiy omillar va ularning taʼsir xarakteri

Xavf omillari	Taʼsir darajasi	Sababning qisqacha xarakteristikasi
Iqtisodiy beqarorlik va ishsizlik	Yuqori	Moliyaviy ehtiyojlar sababli xavfli va norasmiy ishlarga tez rozi boʻlish
Aholining huquqiy savodxonligi pastligi	Oʻrta-Yuqori	Mehnat shartnomalari, viza turlari va inson huquqlarini toʻliq bilmaslik
Uyushgan jinoyatchilikning faolligi	Yuqori	Chegaralararo guruhlarining soxta rekruting agentliklari orqali faoliyati

Odam savdosining ildizlari juda chuqur va koʻp qirrali boʻlib, ularni shartli ravishda “turtuvchi” (push factors) va “tortuvchi” (pull factors) omillarga ajratish mumkin. Iqtisodiy beqarorlik, ishsizlik darajasining yuqoriligi va aholining kam taʼminlangan qatlamlari orasida daromad manbalarining yoʻqligi odamlarni oʻz vatanini tark etib, xorijdan yaxshiroq hayot izlashga majbur qiladi. Bu esa jinoyatchilar uchun qulay sharoit yaratadi; ular “yaxshi maoshli ish”, “bepul taʼlim” yoki “qulay yashash sharoiti” haqidagi yolgʻon vaʼdalar bilan fuqarolarni tuzoqqa tushiradilar. Global globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining rivojlanishi hamda xalqaro migratsiya

oqimlarining nazorat qilinishi qiyinlashgani oqibatida jinoyatchi guruhlar potensial qurbonlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali topish va ularni masofadan turib manipulyatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lmqdalar.

Shu bilan birga, ijtimoiy tengsizlik, gender kamsitishlari va ta'lim darajasining pastligi ham odam savdosi qurboniga aylanish ehtimolini keskin oshiradi. Ko'p hollarda ayollar va bolalar eng zaif qatlam hisoblanib, ular jinsiy ekspluatatsiya yoki majburiy mehnat uchun nishon qilib olinadi. Davlatlardagi huquqiy bo'shliqlar, korrupsiya darajasining yuqoriligi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ushbu jinoyatga qarshi kurashishda yetarli tajribaga ega emasligi ham odam savdogarlari uchun "xavfsiz" muhit yaratadi. Qurolli mojarolar, siyosiy beqarorlik va tabiiy ofatlar ro'y bergan hududlarda insonlar o'z himoyasini yo'qotadilar, bu esa uyushgan jinoiy guruhlar uchun insonlarni osonlikcha ekspluatatsiya qilish uchun zamin yaratadi. Xalqaro ekspertlarning fikricha, talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblik, ya'ni arzon ish kuchiga bo'lgan global ehtiyoj odam savdosining iqtisodiy motori bo'lib xizmat qilmoqda.

Odam savdosi tushunchasi o'z ichiga bir necha murakkab ekspluatatsiya shakllarini qamrab oladi, ulardan eng keng tarqalgani majburiy mehnat va jinsiy ekspluatatsiyadir. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda millionlab insonlar qishloq xo'jaligi, qurilish, baliqchilik va uy xizmatkorligi sohalarida majburiy mehnatga jalb qilingan. Bunday holatlarda insonlarning pasportlari olib qo'yiladi, ular qarzdorlik botqog'iga botiriladi va jismoniy yoki psixologik zo'ravonlik ostida haq to'lanmaydigan yoki juda kam haq to'lanadigan og'ir ishlarga majburlanadi. Jinsiy ekspluatatsiya esa asosan ayollar va voyaga yetmagan qizlarga nisbatan qo'llaniladigan jinoyat bo'lib, u nafaqat jismoniy zarar yetkazadi, balki jamiyatning ma'naviy asoslariga ham zarba beradi. Bu shakldagi odam savdosi ko'pincha xalqaro turizm va ko'ngilochar industriya bilan niqoblangan bo'ladi, bu esa uni aniqlashni qiyinlashtiradi.

Bundan tashqari, inson a'zolari va to'qimalarini ko'chirib o'tkazish maqsadidagi savdo ham zamonaviy dunyoning dahshatli realligiga aylandi. Donorlarning nochorligidan foydalangan holda ularning buyragi yoki boshqa a'zolarini arzon garovga olish va qora bozorda juda qimmatga sotish holatlari transmilliy darajada kuzatilmoqda. Shuningdek, voyaga yetmagan bolalarni asrab olish niqobi ostida sotish, ulardan harbiy harakatlarda "bolalar-askarlar" sifatida foydalanish yoki tilanchilikka majburlash kabi jinoyatlar ham odam savdosining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Har bir shakl o'ziga xos murakkab tuzilmaga ega bo'lib, jinoyatchilar qurbonlarni o'z nazoratida ushlab turish uchun eng shafqatsiz usullardan foydalanadilar. BMTning Giyohvandlik moddalari va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) hisobotlariga ko'ra, qurbonlarning katta qismi o'z vatanlari ichida ham, chegaralar osha ham ekspluatatsiya qilinmoqda, bu esa ushbu muammoning chegarasiz ekanligini ko'rsatadi.

Odam savdosining oqibatlari nafaqat shaxsiy fojia, balki milliy va global darajadagi strategik zarar hamdir. Qurbonlar uchun bu birinchi navbatda chuqur psixologik travma, jismoniy salomatlikning yo'qolishi va jamiyatdan butunlay uzilib qolish demakdir. Ko'plab qurbonlar reabilitatsiya jarayonidan so'ng ham normal hayotga qaytishda qiynaladilar, chunki ularda "stokgolm sindromi", qo'rquv va o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qligi saqlanib qoladi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, odam savdosi davlatlarning inson kapitaliga zarar yetkazadi, soliq tushumlarini kamaytiradi va noqonuniy iqtisodiyotning ulushini oshiradi. Uyushgan jinoyatchilikning ushbu turidan keladigan daromadlar ko'pincha boshqa og'ir jinoyatlarni, jumladan terrorizm va separatizmni moliyalashtirishga sarflanadi, bu esa xalqaro xavfsizlik tizimini izdan chiqaradi.

Ushbu global tahdidga qarshi kurashish maqsadida xalqaro hamjamiyat tomonidan bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bular orasida eng muhimi 2000-yilda qabul qilingan Palermo

protokoli bo'lib, u odam savdosiga qarshi kurashishning uchta asosiy ustunini (3P tamoyili) belgilab bergan: Oldini olish (Prevention), Qurbonlarni himoya qilish (Protection) va Aybdorlarni jinoiy javobgarlikka tortish (Prosecution). Keyinchalik unga To'rtinchi "P" – Hamkorlik (Partnership) ham qo'shildi. Bugungi kunda davlatlar o'rtasida ekstraditsiya, axborot almashinuvi va qo'shma tezkor qidiruv tadbirlarini o'tkazish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, jamoatchilik o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish va xorijga ishga ketayotgan fuqarolar uchun xavfsiz migratsiya kanallarini yaratish odam savdosining oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Faqatgina davlat organlari, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlarining birlashgan sa'y-harakatlari orqali ushbu "asrimizning qulligi"ga chek qo'yish mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, odam savdosi faqatgina bir davlat doirasida hal etilishi mumkin bo'lgan muammo emas, balki u xalqaro miqyosda qat'iy va kompleks yondashuvni talab etuvchi global xavfdir. Ushbu jinoyatning ildizlari chuqur ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga taqalib, uning oqibatlari bashariyat kelajagiga bevosita tahdid soladi. Odam savdosiga qarshi samarali kurashish uchun davlatlar o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi va tezkor huquqiy hamkorlikni kuchaytirish, qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish hamda jazo choralarini qat'iyalashtirish zarur. Shu bilan birga, fuqarolar, ayniqsa, yoshlar va mehnat migrantlari o'rtasida tushuntirish va targ'ibot ishlarini muntazam ravishda olib borish, ularning huquqiy bilimlarini oshirish va munosib ish o'rinlarini yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi lozim. Shundagina odam savdosi qurbonlariga aylanib qolish xavfini keskin kamaytirish va jamiyatning xavfsiz rivojlanishini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Odam savdosi – bu nafaqat huquqiy muammo, balki insoniyat ma'naviyatiga qarshi qaratilgan jinoyatdir. Ushbu illatga qarshi kurashish faqatgina jazo choralarini kuchaytirish bilan cheklanmasligi kerak. *Birinchi*dan, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, xususan, chet elga ishga ketayotgan fuqarolarni xavfsiz migratsiya qoidalari bilan tanishtirish lozim. *Ikkinchi*dan, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish va kambag'allikni qisqartirish odam savdosining oldini olishda eng samarali vositadir.

*Uchinchi*dan, xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish zarur. Transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashda davlatlararo axborot almashinuvi va jinoyatchilarni ekstraditsiya qilish masalalari takomillashtirilishi lozim. Shuningdek, qurbonlarni reabilitatsiya qilish, ularga psixologik va tibbiy yordam ko'rsatish tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamiyatning sog'lomlashishiga xizmat qiladi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, odam savdosiga qarshi kurash har bir fuqaroning, har bir davlatning va umuman xalqaro hamjamiyatning birdamlikdagi harakatini talab qiladi. Zero, har bir inson ozod tug'iladi va daxlsiz yashash huquqiga egadir. Ushbu global muammoni bartaraf etish barqaror taraqqiyot va inson qadrini ulug'lashning asosiy omili bo'lib qoladi.

Foydalanilgan manbalar / References

1. BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) – Odam savdosi bo'yicha global hisobot. – Vena: BMT nashriyoti, 2023. – 15–22-b.
2. Rustamov Q., To'rayev S. Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish huquqi – Toshkent: Adolat nashriyoti, 2021. – 48–75-b.
3. Xalqaro migratsiya tashkiloti – Mehnat migratsiyasi va odam savdosi xavflari. – Jeneva: IOM nashriyoti, 2022. – 112–115-b.
4. Smith J. – Human Trafficking in the 21st Century – London: Oxford Press, 2023. – 345 p.
5. Saidov A.X. – Xalqaro huquq va inson huquqlari – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 188 b.
6. BMT Hisoboti – Dunyoda odam savdosi bo'yicha global doklad – Nyu-York: UNODC Publications, 2025. – 120 b.
7. <https://lex.uz/uz>